

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №11

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2025 noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 204 sahifa.  
2025-yil, noyabr

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI .....	22
<b>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</b>	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR .....	30
<b>Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi</b>	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	35
<b>Sultonov Shodiyor Abdusalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
<b>Xodjimatov Xamidullo Mamirjonovich</b>	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
<b>Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich</b>	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
<b>Axatova Shahnoza</b>	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH .....	63
<b>Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna</b>	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
<b>Хошимова Камилла Навфал қизи</b>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .....	79
<b>Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна</b>	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
<b>Файзиев Умуркул Шухратович</b>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI .....	97
<b>Jalilov Jamshid G'anijonovich</b>	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
<b>Ўролова Севара Бехзод қизи</b>	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
<b>Narziyev Hayotjon Azamatovich</b>	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudjetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
<b>Allakuliyev Akmal Baltayevich</b>	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI .....	120
<b>Parpiyev Jaxongir Iloxomjonovich</b>	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
<b>Xalikov S. X.</b>	
TURISTIK KORXONALARDA BRENDA KAPITALINI BAHOLASH .....	131
<b>Zufarov Akmal Gulamiddinovich</b>	



AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI .....	141
<b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	148
<b>Алимова Дилафруз</b>	
О'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	153
<b>Usmonova Diyora Mahmud qizi</b>	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI .....	161
<b>Radjabov Umurzoq Ablakulovich</b>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ .....	165
<b>Аллаева Г.Ж.</b>	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN .....	169
<b>Mamatova Sevara</b>	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI .....	175
<b>Nabiyev G'ulom Abdusalomovich</b>	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBALARI .....	185
<b>Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li</b>	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI.....	189
<b>Mahmudov Ulug'bek Davronovich</b>	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI .....	193
<b>Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	197
<b>Mamatkulova Nadira Maxkamovna</b>	



# O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Mamatkulova Nadira Maxkamovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi, dotsent  
e-mail: [2025nodi@gmail.com](mailto:2025nodi@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, investitsiya muhiti, davlat siyosati va iqtisodiy islohotlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsion infratuzilmani rivojlantirish hamda investitsiya xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmi, infratuzilmani rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar.

**Abstract.** This article analyzes the current state of attracting foreign direct investment to Uzbekistan's economy, identifies existing challenges, and proposes solutions. It also examines the impact of the investment climate, government policies, and economic reforms on foreign direct investment inflows. Based on the research results, recommendations are developed to create favorable conditions for foreign investors, improve investment infrastructure, and ensure investment security.

**Keywords:** foreign direct investment, investment climate, mechanism for attracting foreign direct investment, infrastructure development, free economic zones.

**Аннотация.** В статье рассмотрено современное состояние привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана, выявлены существующие проблемы и предложены пути их решения. Проанализировано влияние инвестиционного климата, государственной политики и проводимых экономических реформ на потоки прямых иностранных инвестиций. На основе проведенного исследования разработаны рекомендации по созданию благоприятных условий для иностранных инвесторов, развитию инвестиционной инфраструктуры и обеспечению инвестиционной безопасности.

**Ключевые слова:** прямые иностранные инвестиции, инвестиционный климат, механизм привлечения прямых иностранных инвестиций, развитие инфраструктуры, свободные экономические зоны.

## KIRISH

Globalashuv va xalqaro raqobatning kuchayib borayotgan sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xorijiy kapital nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etish, balki yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va mehnat unumdorligini oshirish imkonini ham beradi.

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda uning iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar hal qiluvchi rol o'ynaydi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakatga zamonaviy texnika-texnologiyalarni jalb qilish asosida intensiv ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni yo'lga qo'yish, mashulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarishda boshqaruv tajribalari, ko'nikmalari va innovatsiyalarni o'zlashtirish, milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta'minlash hamda raqobatbardoshlikni oshirish yo'li bilan iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish imkonini yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ilmiy-nazariy asoslari va ularni jalb qilish bilan bog'liq masalalar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid tendensiyalar va muayyan mamlakatlar tajribasi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining xususiyatlari va bu borada yangi nazariy modellar, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishga ta'siri va shu turdagi investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar uzoq xorijlik olimlardan Kenneth A.Froot, A.Razin, E.Sadka, Imad A.Moosa, Hwy-Chang Moon, I.Soumaré, G.Gohou, H.Kouadio, Janvier D.Nkurunziza kabilarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan[1].

Yaqin xorijlik olimlardan A.V.Alekseyev, A.O.Baranov, N.P.Demytyev, G.M.Kostyunina, N.N.Livensev, L.V.Matrayeva, Ye.N.Petrushkevich, L.Chjanli, I.S.Turlay, Fan Szinchjao, A.M.Yeroshkin, P.M.Mozias, N.N.Livensev, G.M.Kostyunina, L.A.Zubchenko kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning xalqaro amaliyoti, zamonaviy jahon iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi, bevosita xalqaro investitsiyalarning nazariyasi, metodologiyasi va davlat tomonidan tartibga solish usullari, Xitoy va Rossiya iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ta'siri, xalqaro kapital harakati kabilari tahlil qilingan[2].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy matematik usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish kompleks va ko'p qirrali yondashuvni talab etadi, bu esa quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish. Bunda qonunchilikni yanada takomillashtirish va barqaror qonunchilik asoslarini ta'minlash, qonunchilikka tegishli o'zgartirishlarni faqat zarur hollarda investorlar fikrini inobatga olgan holda kiritish zarur. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini yanada soddalashtirish, qo'shma korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish muddatlari va xarajatlarini kamaytirish, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, mulk huquqi himoyasini kuchaytirish, shartnomalar ijrosi va nizolarni hal etishda samaradorlikni ta'minlash lozim. Shuningdek, investitsiyalar bilan bog'liq qonunchilikni investitsiya sohasidagi xalqaro me'yorlar va amaliyotlar bilan muvofiqlashtirish kerak.

2. Byurokratiya va korrupsiyani kamaytirish. Bu borada elektron hukumatni keng ko'lamda joriy etish, davlat xizmatlarini to'liq onlayn shaklga o'tkazish orqali amaldorlar va investorlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni qisqartirish, xorijiy investorlar uchun ruxsatnomalarni berish jarayonini yanada soddalashtirish va qisqartirish zarur. Davlat organlari faoliyatining oshkoraligini oshirish, ya'ni investorlar uchun davlat organlari faoliyati va qabul qilinayotgan qarorlar haqida axborot olish imkonini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha jiddiy chora-tadbirlar ko'rish zarur.

3. Soliq tizimini takomillashtirish. Ushbu yo'nalishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlar foydasiga tushadigan soliq yukini kamaytirish imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqish, ustuvor soha va hududlarda intensiv ishlab chiqarish asosida investitsion loyihalarni amalga oshirayotgan xorijiy investorlar uchun berilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalarni kengaytirish hamda soliq to'lash va hisobot taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish kerak.

4. Valyuta bozori barqarorligini ta'minlash. Bunda so'mning barqaror kursini saqlash, investorlar uchun valyuta bilan bog'liq risklarni kamaytirish maqsadida so'm kursini barqarorlashtirish bo'yicha zarur va kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rish, valyutaning konvertatsiyasini kafolatlash, ya'ni xorijiy investorlar uchun foyda va kapitalni erkin repatriatsiya qilish imkonini beradigan so'mning kafolatlangan konvertatsiyasini ta'minlash lozim.

5. Infratuzilmani rivojlantirish. Bu yo'nalishda, eng avvalo, transport infratuzilmasini yaxshilash, yo'llar, temir yo'llar va aeroportlarni qurish va modernizatsiya qilish, logistika samaradorligini oshirish va transport xarajatlarini kamaytirish maqsadida transport infratuzilmasiga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini kiritish kerak. Yuklarni saqlash, qayta ishlash va tashish uchun zamonaviy logistika markazlarini yaratish zarur. Energetika infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan, yangi elektr stansiyalarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, energiya ta'minotini ishonchli ta'minlash maqsadida, xususan, barqaror energiya manbalari asosida yangi elektr stansiyalarini qurish va mavjudlarini yangilash kerak. Gaz transport tizimini modernizatsiya qilish, xususan, iste'molchilar uchun gaz yetkazib berishda ishonchlikni ta'minlash maqsadida gaz transport tizimini yangilash lozim. Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida internet va mobil aloqaga kirish imkoniyatini yanada kengaytirish, uzoq hududlarda internet va mobil aloqa xizmatlarini rivojlantirish uchun infratuzilmaga investitsiya kiritish lozim.



6. Inson kapitali rivojlanishini qo'llab-quvvatlash. Ushbu yo'nalishda, avvalo, ta'lim sifatini oshirish kerak. Kasbiy ta'limni rivojlantirish, ya'ni mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish uchun kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish, mahalliy kadrlar malakasini oshirish va tajriba almashish maqsadida xorijiy o'qituvchilar va ekspertlarni jalb qilish zarur. Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish uchun grant va subsidiyalar ajratish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashirish uchun innovatsion markazlar va texnoparklar tashkil etish, ilm-fan va biznes o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish borasida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish maqsadida ilmiy tashkilotlar va korxonalar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

7. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlarini faol targ'ib qilish. Mazkur yo'nalishda xalqaro ko'rgazmalar va investitsion forumlar tashkil qilish va bunda O'zbekistonning investitsion imkoniyatlarini investitsiya ko'rgazmasi tashkil qilish orqali namoyish etish, ko'rgazmada yirik mahalliy xususiy kompaniyalar xalqaro investorlarga o'z imkoniyatlarini namoyish etish imkonini yaratish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar olib keluvchi mamlakatlar investorlariga aniq investitsion loyihalarni taqdim etish va investorlarni jalb etish maqsadida "roud-shou"lar tashkil etish zarur. Shuningdek, O'zbekistondagi investitsiya muhiti, qonunchilik va investitsiya loyihalari haqida batafsil ma'lumot beruvchi investitsiyaviy portalni takomillashtirish, O'zbekistonning investitsiyaviy imijini targ'ib qilish va investorlar e'tiborini jalb etish uchun ijtimoiy tarmoqlar va Ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanish hamda investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va investitsion loyihalarni targ'ib qilish uchun xorijiy maslahatchilarni jalb etish lozim.


8. Erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini ko'paytirish va ular faoliyatini takomillashtirish maqsadida imtiyozlar va preferensiyalar taqdim etish, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini zamonaviy infratuzilma – transport, aloqa, energetika va suv ta'minoti bilan ta'minlash kerak. Erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini samarali boshqarish uchun xalqaro tajribaga ega boshqaruvchi kompaniyalarni jalb etish zarur. Eng muhimi, erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini uchun bojxona imtiyozlari taqdim etish zarur. Bunday imtiyozlar MDHga a'zo mamlakatlarda amal qiladi. Masalan, "Rossiya Federatsiyasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida foydalanish uchun olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar, uning butlovchi qismlari va ehtiyot qismlari, xom ashyo va materiallarga nisbatan import bojxona bojini to'lashdan ozod qilish shaklida imtiyozlar" mavjud[3]. Gruziyada bojxona to'lovlari liberal iqtisodiy siyosat va soddalashtirilgan bojxona tizimi tufayli dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biridir va ushbu davlatda ham butlovchi va ehtiyot qismlar, xomashyo va materiallar import bojxona bojini to'lashdan ozod qilingan. Bojxona to'lovlarni to'lash bo'yicha imtiyozlar Qozog'iston Respublikasining milliy qonunchiligi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining qonunchiligi va xalqaro shartnomalar bilan belgilanadi. Imtiyozlar tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish vositalaridan biri hisoblanadi. Qozog'istonda ham "texnologik asbob-uskunalar, uning butlovchi qismlari va ehtiyot qismlari, xom ashyo va materiallarga nisbatan import bojxona bojini to'lashdan ozod qilingan" [4]. Shu munosabat bilan O'zbekistonda ham ishlab chiqarishni tashkil etish zarur bo'ladigan xomashyo, material va butlovchi qismlarni bojxona to'lovlaridan ozod qilish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksportga realizatsiya qilish uchun foydalanadigan import xomashyo, material va butlovchi qismlarni bojxona to'lovlaridan ozod qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida erishilgan kelishuvlarning samarali ijrosini ta'minlash hamda maxsus iqtisodiy va sanoat zonalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish imkonini yaratadi.

9. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish. Mazkur yo'nalishda davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, bu boradagi qonunchilikni takomillashtirish, investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish va xususiy investorlar uchun risklarni kamaytirish zarur. Iqtisodiyotning infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy xizmatlar sohalaridagi davlat-xususiy sheriklik loyihalariga ilg'or tajribalarga ega sheriklarni, xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etish lozim.

10. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish. Ushbu yo'nalishda iqtisodiyotning ustuvor sohalariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun maqsadli dasturlar ishlab chiqish, quyosh va shamol energetikasi, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoati, turizm kabi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyati yuqori bo'lgan ustuvor sohalarini belgilash zarur. Jumladan, turizm sohasi bu turdagi investitsiyalarni jalb qilishda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Hozirgi sharoitda turizm jahon xo'jaligining yetakchi sohalaridan biriga aylandi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida turizm iqtisodiyotning eng daromadli sohalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan bir qator mamlakatlar uchun turizm xorijiy valyutani jalb qilishning samarali manbaiga aylandi, bu esa iqtisodiy o'sish va ijtimoiy muammolarni hal qilishga xizmat qilmoqda. Ko'plab mamlakatlarda turizm sohasida band bo'lganlar soni allaqachon iqtisodiyotning boshqa sohalarida ishlayotganlar soniga tenglashib bormoqda. Turizm qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda, yo'l va mehmonxonalar qurilishi rivojlanishni tezlashtiradi, har xil transport vositalari ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi. Turizm xalq hunarmandchiligi va mintaqalar hamda mamlakatlarning milliy madaniyatini saqlashga yordam beradi.



BMTning xalqaro turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha jahondagi yagona xalqaro tashkilot hisoblangan Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO – United Nations World Tourism Organization) ma'lumotlariga ko'ra, "jahon turizm hajmi yil oxiriga kelib, 10,9 trln. AQSH dollariga yetdi. 2024-yilda sayohat va turizm sohasi jahon iqtisodiyotining 10 foizini tashkil qiladi. Ushbu sohadagi xodimlarning umumiy soni global miqyosda 357 million kishiga yetdi, bu o'tgan yilga nisbatan 6,2 foizga ko'pdir. Shunday qilib, dunyo bo'ylab taxminan 10 ish o'rinlaridan biri turizm sektoriga to'g'ri keladi" [5]. O'z navbatida, turizmni rivojlantirish va shu asosda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishini taqozo etadi. Ulardan asosiysi sayyohlar uchun zamonaviy mehmonalar qurish hisoblanadi. Shu munosabat bilan turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish orqali turizm sohasini rivojlantirish, sayyohlar oqimini ko'paytirish asosida jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish maqsadida yangi mehmonxonani qurib foydalanishga topshirgan tadbirkorlik subyektiga yoki investorga ushbu mehmonxonani qurish va jihozlash uchun ketgan xarajatlarning bir qismini qoplash maqsadida Davlat budjetidan subsidiya ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa O'zbekistonga sayyohlar oqimini ko'paytirib, bevosita xorijiy investitsiyalar hajmini oshirib beradi. So'nggi 5 yil ichida O'zbekiston turizm sohasiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada o'sgan, ya'ni "2024 yilda 7957,2 ming chet el fuqarolari O'zbekistonga turistik maqsadlarda xorijdan tashrif buyurgan va bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan 20,1 foizga ko'paygan" [6]. 2023-yilda turizm xizmatlari eksporti 2,1435 milliard dollarni tashkil etgan va bu 2022-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'pdir. Turizm va unga aloqador tarmoqlarda 70 mingga yaqin yangi ish o'рни yaratilgan" [7]. Biroq, jahonda tashrif buyurgan turistlar soni bo'yicha Fransiya yetakchilik qilmoqda. Ushbu mamlakatga yiliga 90 mln. turist tashrif buyuradi. AQSH va Ispaniya turizmdan eng ko'p daromad topadigan mamlakat hisoblanadi, jumladan 2023-yilda AQSHning turizmdan olgan daromadi 215 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, Ispaniyada bu ko'rsatkich 106,5 mlrd. AQSH dollariga teng bo'lgan (1-rasm). Bundan ko'rinadiki, turizm sohasi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida katta imkoniyatlarga ega va ushbu sohani yanada rivojlantirish O'zbekistonga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni oqimini sezilarli darajada ko'paytirish imkonini beradi.




1-rasm. 2023-yilda xalqaro turizmdan eng ko'p daromad olgan 10 ta davlat<sup>1</sup>

1 Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO – United Nations World Tourism Organization)ning tegishli yillardagi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tuzilgan ([Туризм \(мировой рынок\)](#)).



Shuni ham qayd etish zarurki, “jazirama issiq va izg’irin sovuqda, hammani paxtaga majburiy safarbar etgan yillarda ham O‘zbekiston paxta tolasining eksporti 1 milliard dollardan oshmagan. Hozirgi kunda turizm eksporti bu marradan oshib o‘tdi. Agar uni uch-to‘rt barobar oshirsak, jaydari qilib aytganda, “paxta ekmasak” ham bo‘laveradi”[8]. Bunga, albatta, O‘zbekistonning qadimgi tarixiy-me‘moriy takrorlanmas yodgorliklari, Xivadagi Ichan qal‘a majmuasi, Buxoro, Shahrisabz va Samarqanddagi tarixiy markazlar, barpo etilayotgan zamonaviy mehmonxonalar imkon yaratadi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari<sup>2</sup>

2 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekistonga qulay investitsiya muhitini shakllantirish, infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va investitsiya imkoniyatlarini faol targ'ib qilish imkonini beradi. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish va mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi va xalqaro integratsiyasi uchun strategik ahamiyatga ega. Shu bois:

investitsiya muhitini yanada yaxshilash, turizm sohasidagi tadbirkorlik subektlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish orqali turizm sohasini rivojlantirish va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida investorlar tomonidan yangi mehmonxona qurish va uni jihozlash xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida Davlat budjetidan subsidiya ajratishning maqsadga muvofiq;

maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksportga realizatsiya qilish uchun foydalanadigan import xomashyo, material va butlovchi qismlarni bojxona to'lovlaridan ozod qilish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur takliflar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko'paytiradi va iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kenneth A. Froot. Foreign Direct Investment. National Bureau of Economic Research Project Report. University of Chicago Press. 2008. – 312 p.; Assaf Razin, Efraim Sadka. Foreign Direct Investment: Analysis of Aggregate Flows. Princeton University Press. All Rights Reserved. 2016. – 160 p.; Imad A. Moosa. Foreign Direct Investment: theory, evidence and practice. Palgrave Macmillan London. 2002. – 358 p.; Hwy-Chang Moon. Foreign Direct Investment: a global perspective. Seoul National University, South Korea). 2016. – 216 p. (Foreign Direct Investment: A Global Perspective - Hwy-chang Moon - Google Книги); Issouf Soumaré, Gaston Gohou, Hugues Kouadio and Janvier D. Nkurunziza. Foreign Direct Investment and Economic Development in Africa. Cambridge Scholars Publishing. Transnational Corporations Council of Studies Series. Lady Stephenson Library, Newcastle upon Tyne, NE6 2PA, UK. 2018. – 489 p.
2. Алексеев А.В., Баранов А.О., Дементьев Н.П. и др. Инвестиционный процесс и структурная трансформация российской экономики. Монография. – Новосибирск: ИЭОПП СО РАН, 2020. – 402 с.; Костюнина Г.М., Ливенцев Н.Н. Международная практика регулирования иностранных инвестиций. Учеб. пос. – М.: Анкил. 2001. – 128 с.; Матраева Л.В. Прямые иностранные инвестиции в современной мировой экономике. Монография. – М.: Маркетинг, 2013. – 196 с.; Петрушкевич Е.Н. Международные прямые инвестиции в мировой экономике: теория, методология, государственное регулирование. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. д.э.н. – Минск: Белорусский государственный экономический университет, 2020. – 51 с.; Лю Чжаньли. Прямые иностранные инвестиции в экономику Китая. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – М.: МЭСИ, 2003. – 24 с.; Турлай И.С. Влияние региональной экономической интеграции на привлечение прямых иностранных инвестиций (теоретические, методологические, эмпирические аспекты). Монография. – М.: ИНФРА-М, 2017. – 148 с.; Фань Цзиньжао. Прямые иностранные инвестиции в России и Китае: сравнительно-правовое исследование. Автореф. дисс. на соиск. уч. ст. к.ю.н. – М.: Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова, 2023. – 29 с.; Ерошкин А.М., Мозиас П.М. Прямые иностранные инвестиции в России: от точечной модернизации к стабильному развитию. Монография. – М.: Принт-Сервис, 2013. – 127 с.; Ливенцев Н.Н. Международное движение капитала: инвестиционная политика зарубежных стран. Учеб. для вузов / Н.Н.Ливенцев, Г.М.Костюнина. – М.: Экономика, 2004. – 368 с.; Зубченко Л.А. Иностранные инвестиции. Учеб. пос. – М.: ООО Книгодел, 2006.– 160 с.
3. [Освобождение от оплаты таможенных платежей импортируемых сырья, материалов и комплектующих, используемых для производства и реализации продукции на экспорт в Российской Федерации.](https://www.alt.ru) <https://www.alt.ru>.
4. [Льготы по уплате таможенных платежей и налогов.](https://dogovor24.kz) <https://dogovor24.kz>.
5. Туризм\_(мировой\_рынок).<https://www.tadviser.ru/index.php>
6. [stat.uz/uz/?preview=1&option=com\\_dropfiles&format=&task=frontfile\\_download&catid=469&id=3695&Itemid=100000000000](https://stat.uz/uz/?preview=1&option=com_dropfiles&format=&task=frontfile_download&catid=469&id=3695&Itemid=100000000000)
7. Узбекистан в рейтинге развития туризма. [https://www.kultura.uz/view\\_7\\_r\\_21360.html](https://www.kultura.uz/view_7_r_21360.html).
8. Shavkat Mirziyoyev: turizm eksportini uch-to'rt barobar oshirsak, jaydari qilib aytganda, "paxta ekmasak" ham bo'laveradi. <https://xs.uz/uz/post/turizm-eksportini-3-4-barobar-oshirsak-zhajdari-qilib-ajtganda-pakhta-ekmasak-ham-bolaveradi-shavkat-mirziyoev>

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)